



MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

MUNDARIJA

Шарипов К.А., Хотамов И.С.	Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане.....	2
Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.	Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	10
Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.	Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari.....	20
Nosirova N.J.	Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri.....	26
Samadov A.N.	Innovative Service Marketing: Russian Experience.....	34
Temirov A.A.	Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan.....	42
Sobirov A.A.	Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'naliishi sifatida.....	51
Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.	Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari.....	60
Azlarova M.A.	Waste management activities and methods.....	71
Кадирова И.Б.	Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан.....	74
Fozilova F.K.	Importance of children's financial education and behavior	78
Фарходова Ш.Ш.	Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения.....	83
Ostanaqulov X.M.	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida.....	87
Karrieva Y.K.	Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan	95
Masharipova Sh.A.	Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	100
Xudayberdiyev O'.E	Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalichlari.....	111
Каримов В.А.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти	116
Qahhorov Sh.G'.	O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari"	122
Мурадов Ф.Д.	Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати	125
Karimova S. T.	Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi	131
Arziqulov E.A.	Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi.....	137
Azim Davron.	Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda.....	142
Baxanurov O. O.	Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective	148
Akbarov Sh.X.	Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida)	155
Kodirov S.Q.	Logistika va Iqtisodiyot	160

KONSTITUTSIYA FAROVON TARAQQIYOTIMIZ GAROVI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Konstitutsiya farovon hayotimiz garovi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unda Konstitutsianing dastlabki namunasi AQShda yaratilganligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilguniga qadar O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi aynan Konstitutsianing yaratilishiga muhim hujjat vazifasini o'taganligi, Mustaqillikka erishganimizdan keyin davlatimizning bosh qomusi Konstitutsiya yaratilganligi hamda ushbu Konstitutsiya davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilashda muhim tirkak vazifasini o'tashi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, tuzulish, tuzuk, davlat, jamiyat, fuqarolar, erkinlik, globallashuv, taraqqiyot, siyosat, huquq, mas'uliyat.

Annotation. This article recognizes the Constitution as the guarantee of our prosperous life, and it is noted that the first example of the Constitution was created in the USA, that before the Constitution of the Republic of Uzbekistan was created, the Declaration of Independence of the Republic of Uzbekistan served as an important document for the creation of the Constitution, that after we gained independence, the Constitution, the main document of our state, was created, and that this Constitution serves as an important pillar in determining the development of the state and society.

Keywords: constitution, structure, order, state, society, citizens, freedom, globalization, development, politics, law, responsibility.

Аннотация. В статье залогом нашей благополучной жизни признается Конституция, в которой первый образец Конституции был создан в США, до того, как была создана Конституция Республики Узбекистан, Декларация независимости Республики Узбекистан. Республика Узбекистан послужила важным документом для создания Конституции, после обретения нами независимости было отмечено, что Конституция нашей страны была создана и что эта Конституция служит важной опорой в определении развития государства и общества.

Ключевые слова: конституция, структура, порядок, государство, общество, граждане, свобода, глобализация, развитие, политика, право, ответственность.

Kirish. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, u davlat tuzilishi, hokimiyat organlarining tashkil etilishi va faoliyati, fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Shu o'rinda Konstitutsiya so'ziga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, Konstitutsiya "(lot. Constitutio – tuzilish, tuzuk) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini,

ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonularning asosi hisoblanadi" [1].

Konstitutsiya davlatning asosiy tamoyillarini, uning maqsadlari va vazifalarini ko'rsatadi. U davlatning

qanday tashkil etilganini, uning boshqaruv tizimini, hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Konstitutsiya fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi, masalan, so'z erkinligi, yig'ilish erkinligi, diniy erkinlik va boshqalar.

Konstitutsiya ko'pincha hokimiyatni uchta asosiy tarmoqqa (ijro, qonun chiqaruvchi va sud) taqsimlaydi. Bu taqsimot davlat hokimiyatining suisite'mol qilinishini oldini olishga yordam beradi. Konstitutsiya jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma sifatida qaraladi, unda fuqarolar o'z huquqlarini himoya qilish uchun davlatga ishonch bildiradilar. Shusababli, O'zbekiston Konstitutsiyasi farovon taraqqiyotning mustahkam poydevorini tashkil etadi va mamlakatning kelgusi rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyalar sud tizimini mustahkamlash orqali fuqarolar huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Konstitutsion sudlar yoki boshqa huquqiy organlar konstitutsiyaning bajarilishini nazorat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyo tarixida eng birinchi

yaratilgan konstitutsiya huquqiy hujjat sifatida 1787-yil 17-sentabrda qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi hisoblanadi. Bu konstitutsiya davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi va fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi muhim hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o'zing bosh qomusini yaratishidan ilgari konstitutsiyaga tenglashtirilgan hujjat vazifasini "O'zbekistonning mustaqillik deklaratsiyasi" (1990-yil 20-iyun)bajargan. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida o'zini tan olishi va sobiq Sovet Ittifoqidan ajralishini e'lon qildi. "Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir"[2]. Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiya yaratilishida muhim asosiy hujjat sifatida qaralgan. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida boshqa mamlakatlar bilan teng huquqli aloqalarni o'rnatishga tayyor ekanligini ta'kidlanadi.



O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan mustaqil davlat sifatida e'lon qilindi. Shundan so'ng davlat o'z oldiga yangi qonunchilik va huquqiy

asoslarni yaratish vazifasini qo'ydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, avvalgi O'zbekiston SSR Konsitutsiyasi (1978-




yil) o'z ahamiyatini yo'qotdi va yangi, mustaqil davlat uchun zamonaviy qonunlar ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. 1991-yilning oxirida va 1992-yilning boshida O'zbekistonda Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishlar boshlandi. Bu jarayonda jamoatchilik, mutaxassislar va siyosatchilar ishtirok etdi. Konstitutsiya loyihasi keng jamoatchilik o'rtaida muhokama qilindi. Bunda turli fikrlar va takliflar yig'ilib, ularni inobatga olishga harakat qilindi.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Konstitutsiya qabul qilindi. Bu hujjat O'zbekistonning asosiy qonuni sifatida mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini belgilovchi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Mamlakatdagi barcha fuqarolar hamda davlat idoralari ushbu konstitutsiyada

ko'rsatilgan moddalariga birdek amal qilishi belgilab qo'yilgandir.

Xususan, konstitutsianing 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilan-

gan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi.



Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar”[3]. Ushbu moddadagi bandlar yuqorida fikrlarimizga dalildir.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqot ishi jarayonida Konstitutsianing farovon taraqqiyotimiz garovi sifatidagi ahamiyati metodologik yondashuvlar asosida ochib berilgan bo'lib, unda qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodik yondoshuvlar asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Konstitutsiya qabul qilinganidan so'ng, uning ayrim moddalariga bir necha bor o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi, bu esa mamlakat rivojlanishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish maqsadida amalga oshirildi.

“Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik

davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda”[4] qonuniy vazifasini bajarish bu hozirgi globallashuv davrida ham muhim hisoblanadi.

Bu borada davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev “bosh qonunimizni churqur o'rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so'zsiz amal qilish-barchamizning burchimizdir”[5] degan so'zlari barcha O'zbekiston xalqiga birdek mas'uliyat yuklaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi muhim hujjat bo'lib, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi hamda davlat organlarining faoliyatini tartibga soladi.

“Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular orqali:

- O'zbekistonning suverenligi, mustaqilligi to'la ta'minlangan;

- inson huquq va erkinliklari xalqaro andozalarga mos ravishda belgilangan;
- shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan;
- demokratik asoslarda va tammayillarda hokimiyat tizimi va hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan;
- eng asosiysi, konstitutsiyaviy huquq normalari har qanday mafkuradan ozod qilingan” [6].

Bu vazifalar mamlakat farovonligi hamda ertangi taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonning 33 yillik taraqqiyot yo‘lida Konstitutsiyada belgilangan qoidalari jamiyat va davlat ravnaqini taminlashga xizmat qilib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. “Demokratik davlatlar tajribasida fuqaro bilan davlat munosabati belgilanishida, fuqaro manfaati ustun turadi. Bu Konstitutsiyamizda o‘z aksini topdi. Konstitutsiyamizda davlat, davlat or-

ganlari, mansabdar shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligining o‘rnatalishi;

- hokimiyat bo‘linishi prinsipining o‘rnatalishi; inson oliv qadriyat hisoblanishi; huquq va erkinliklarining daxlsizligi;

- unda shaxsiy huquqlarning ustuvorligi huquq, erkinliklarining sud tomonidan himoya qilinishi;

- mulkchilikning turli shakllari mavjudligi, xususiy mulkning daxlsizligi o‘rnatilganligi Konstitutsiyamiz jahon andozalariga mos kelishini ko‘rsatadi”[7].

Xulosa va takliflar. Konstitutsiya fuqarolar erkinligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi va ularning huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy qonuniy qolipga solinishida muhim vazifani bajaradi. Davlat va jamiyat ertangi taraqqiyotining mustahkam poydevori Konstitutsiyada belgilangan qoidalarga bog‘liqidir. Har-bir shaxs bu borada huquqiy ongini shakllantirib, avvalo o‘zi va davlat kelajagini Konstitutsiya bilan birga bog‘lamog‘i zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi. K harfi. - 572 b.
https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensklopediyasi%20-%20K%20harfi.pdf.
2. Mustaqillik Deklaratsiyasi. 20.06.1990. <https://lex.uz/docs/-185391>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 15-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima qismi 3-4-bandlari. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
5. Mirziyoyev Sh. Niyyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kaelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 3-tom. - 59 b.
6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Adolat. 2013. - 14 b.
7. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Ilm ziyo. 2017. - 39 b.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2024. 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda “**Management and Economics Scientific Research Journal**” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114